# XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-113-5-73-K/25 Navbahor tumani

**Navbahor tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari,

"2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2025-yil 25-dekabrdagi O'RQ-1105-son Qonuniga va, xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Navbahor tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari 128 444 510,0 ming so'm va xarajatlari esa 128 444 510,0 ming so'mga ma'lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Navbahor tuman budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 1 098 057,0 ming so'm etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun 1 759 697,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg′armasi mablag′larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo′lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo′lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo′naltirilishi ta′minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag′allikni qisqartirish masalalari bo′yicha birinchi o′rinbosari M.Jumaboev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo′limi (N.Xotamov), tuman soliq inspektsiyasi (Sh.Berdiev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko′rsatkichlarni o′z vaqtida va samarali bajarilishini ta′minlash choralarini ko′rsin.

6. Hududiy budjet mablag′larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag′larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag′larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag′lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to′lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to′liq rejalashtirilishi va o′z vaqtida to′lanishi;

o′zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to′g′ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag′larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to′liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag′larning to′g′ri taqsimlanishi;

o′z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta′minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma′lumotlarni joylashtirib borilishini ta′minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (T.Abdiev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari M.Jumaboev zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiyaga raislik qiluvchi** **QUDRATOV ZOHID MUZAFFAROVICH**

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-113-5-73-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Navbahor tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari**

| T/R | Daromad turlari | Miqdori (ming so‘m) |
|---|---|---|
| 1 | Foyda solig‘i | 6 521 110 |
| 2 | Aylanmadan olinadigan soliq | 5 835 000 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 42 326 460 |
| 4 | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | 681 000 |
| 5 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 7 346 800 |
| 6 | Aksiz solig‘i, jami | 9 476 000 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq* | 9 476 000 |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 4 692 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 7 215 000 |
| 9 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 11 680 000 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 18 659 000 |
| 11 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 1 098 900 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 3 991 400 |
| 13 | Davlat boji | 3 102 840 |
| 14 | Jarimalar | 3 398 000 |
| 15 | Davlat mulkini ijarasidan tushumlar | 206 000 |
| 16 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 0 |
| 17 | Yig‘imlar | 2 215 000 |

| | |
|---|---|
| **JAMI Daromad** | **128 444 510** |

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-113-5-73-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari**

| № | Ko‘rsatkichlar | Miqdori (ming so‘mda) |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar miqdori, Jami** | **128 444 510,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | **128 444 510,0** |
| **1** | **Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi** | **37 887 985,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 37 887 985,0 |
| | - maktabgacha ta’lim | 13 154 872,0 |
| | - umumiy ta’lim | 24 733 113,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *"Mening maktabim"* | 2 224 800,0 |
| | *Tuman Musiqa va san’at maktabi* | 2 330 496,0 |
| **2** | **Tuman Madaniyat bo‘limi** | **2 920 562,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 920 562,0 |
| **3** | **Tuman Axborot-kutubxona markazi** | **1 042 294,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 042 294,0 |
| **4** | **Tuman Sport maktablari** | **11 337 794,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 11 337 794,0 |
| **5** | **Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi** | **2 129 765,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 129 765,0 |
| **6** | **Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi** | **4 498 564,0** |

| | | |
|---|---|---|
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 498 564,0 |
| **6** | **Tuman Hayvon kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi** | **620 001,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 620 001,0 |
| **7** | **Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi** | **533 625,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 533 625,0 |
| **8** | **Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** | **23 465 131,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 18 815 867,0 |
| | Ichki yo‘llarni saqlash va ta’mirlash uchastkasi xarajatlari | 4 649 264,0 |
| **9** | **Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi** | **2 363 448,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | |
| | shu jumladan: saqlash xarajatlariga | 2 363 448,0 |
| **10** | **Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi** | **4 664 561,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 664 561,0 |
| **11** | **"Suv yetkazib berish xizmati" DM** | **2 008 000,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 008 000,0 |
| **12** | **Tuman hokimligi** | **33 381 780,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 33 381 780,0 |
| | Shu jumladan: saqlash xarajatlari | 5 865 425,0 |
| | Tuman Xalq qabulxonasi | 145 432,0 |
| | Xokim yordamchilari | 4 146 080,0 |
| | Hokimliklarning zahira jamg‘armalari | 1 759 697,0 |
| | Tuman oila va xotin qizlar bo‘limi | 2 102 578,0 |
| | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | 19 362 568,0 |
| **13** | **"Mahalla budjeti" jamg‘armasi** | **1 591 000,0** |